

ISSN 2181-8258

DOI prefiksi:10.69691

IF-9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine



TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

1 (64)

2025



TAMADDUN NURI jurnali

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru,

(AMEA) müxbir üzvü (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, fil.f.n, dots (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

BIZNI UTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilizimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 28-yanvarda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 1-son (64).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №28.

Jurnalidan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning

to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref 10.69691 DOI



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE
ISSN-2181-8258



Academic
Resource
Index
ResearchBib
Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



JOURNAL THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n. (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

Azerbaijan National Academy of Sciences

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Daniyor YULDASHEV, Phil.sc.d (DSc)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Azamat PRIMOV, can. of phil.sc, dots (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJPOV, phil.sc..d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,
Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.


The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 1/4. Publisher's scoreboard 6.5. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.1 (64).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #28. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref

Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Komolov Dilshod Pulatovich. Turkistonda jadiclar tomonidan odil sudlov idoralarini tashkil etish borasidagi harakatlar.....	9
Komolov Dilshod Pulatovich, Qlichov Farxod Pozilovich. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudining tashkil etilishi tarixiga bir nazar..	43
Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o'g'li. Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825) Xiva davlati va Rossiya munosabatlarida "Rus qullari masalasi"	90
Matyakubov Ikrom Botirovich. Manjurlarning ichki Xitoyga bostirib kirishi va Li Zi Cheng (李自成)ning Ching(Qing 清)ga qarshi kurashining tarixiy-metodologik asoslari.....	104
Kenjayev Bunyod Baxtiyor o'g'li. 1920-yillarda Xorazmda tarix fanlaridan iborat ijtimoiy fanlar darsliklarining yaratilishi.....	109
Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li. Qadimgi davr sivilizatsion jarayonlarida ekologik omillar ta'sirini o'rganish usullari.....	113
Matyakubov Xamdani Xamidjanovich. Kaltaminor madaniyatining xo'jalik sohalariga oid ilmiy qarashlar tahlili.....	118
Babajanova Nilufar Alisherovna. Xorazm hududida temir davri geografik holati, aholi joylashishi hududiy chegaralari kartografiyasiga doir ba'zi mulohazalar.....	162
Садыкова Рената Шамильевна. Внутриполитические изменения Индии и Пакистана как факторы, влияющие на конфликт 1947-1965 годов.....	200
Yusupov Shakir Xaitbayevich. Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazmdagi shaharsozlik madaniyatining taraqqiyoti.....	231
Дадажонова Наргиза Давлатбек қизи. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССРни электрлаштириш тарихига доир.....	245
Ruzikulova Maftunaxon Yuldashevna. Markaziy Farg'ona irrigatsiyasi tarixi (1950-1991-yillar).....	280
Маткаримова Садоқат Мақсудовна. Ферузоннинг ҳаёти ва тараққийпарварлик фаолияти.....	297
Komilov Oybek Kamilovich. O'zbekiston SSRda sug'orish tizimi tarixi (1950-1990-yillar).....	313
Алихожиев Муҳаммаджон Одилжон ўғли. Эпидемияларга қарши кураш тарихидан.....	325
Саидусманов Баҳром Абдуганиевич. Тошкент вилоятида автомобиль транспорти тизимининг йўлга қўйилиш тарихи (1945-1990).....	337
Yakubov Husniddin Muxitdinovich. Karfagen – qadimgi dunyoning buyuk shahri.....	340

09.00.00 - "FALSAFA"

Zulfugarov Vusal Rahmon o'g'li. Falsafa-fan aloqalari: fanlararo yondashuv kontekstida epistemologik tahlil.....	13
Davletov Jamshid Bekmatovich. Yangi davr aksiologiyasida inson qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati.....	21
Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich. Go'zallik va axloqiy qadriyatlarning madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'zgarishi.....	68
Yuldasheva Matluba Munavarovna. Milliy mafkura jamiyatni modernizatsiyalashda innovatsion rivojlanishni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishdagi strategik maqsadi.....	138
Рўзиев Мақсуд Ўринович. Абулҳасан Бахманёр ва унинг мактаби давомчилари.....	172
Асрарова Мухаббат Усманджоновна. М.Н. Болтаев илмий меросида тасаввуфга муносабат.....	176
Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich. Zararli g'oyalarning destruktiv va g'ayriinsoniy xususiyatlari.....	191
Ja'farov Ibrohimjon Xolmuhammad o'g'li. Globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlar himoyasi.....	210
Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy funksiyasi.....	253
Ахатов Лутфилло Караматуллоевич, Мирахмедова Шохидат Нусратиллоевна. Ҳазрат Навоий асарларида тасаввуф ва комил инсон ғояси.....	271
Djurayev G'olib Abdurasulovich. Fransuz ekzistensializmining vujudga kelishidagi ijtimoiy-falsafiy muhit.....	274
Ro'zmetov Ro'zmat Botirovich. Sun'iy intellekt jamiyat uchun ijtimoiy xavfmi yoki ijobiy hodisa.....	288
Komilov Abror Quvondiqovich. Axloq va gender tushunchalarining falsafiy ta'rif va tasniflari.....	293
Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li. Yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	309
Imamova Umida Ismoil qizi. Jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlashning ma'naviy omillari.....	334

ZARARLI G'OYALARNING DISTRUKTIV VA G'AYRIINSONIY XUSUSIYATLARI

*Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich, Chirchiq davlat
pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)*

DESTRUCTIVE AND INHUMANE CHARACTERISTICS OF HARMFUL IDEAS

*Tashmetov Tukhtasin Khudayberganovich, Associate
Professor, Chirchik State Pedagogical University, Doctor of
Philosophy (PhD)*

ДЕСТРУКТИВНЫЕ И БЕСЧЕЛОВЕЧНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВРЕДНЫХ ИДЕЙ

*Ташметов Тухтасин Худайберганович, доцент
Чирчикского государственного педагогического
университета, доктор философии (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0009-7633-4035>

e-mail:

toshmetovtuxtasin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zararli g'oyalarning destruktiv va g'ayriinsoniy xususiyatlari sifatida axborot g'oyaviy ta'sir o'tkazishning o'tkir quroliga aylanayotganligi hamda yosh avlodning media savodxonligi va internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, milliy segmentni rivojlantirish, yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan ximoya qilish texnologiyalarining nazariy asoslarini yanada takomillashtirish amaliy ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: axborot, targ'ibot, geosiyosat, globallashuv, internet, g'oya, ma'naviyat, mafkura, milliy qadriyat, texnologiya, intellektual, kompyuter, xuruj, tahdid, manipulyatsiya, fatvo, ekstremizm, manqurt, ijtimoiy tarmoq, demokratiya.

Abstract: This article emphasizes that axiorot becomes a sharp instrument of ideological influence as destructive and inhumane features of harmful ideas, and it is of practical importance to increase the culture of media literacy and Internet use by the younger generation, develop the national segment, and further improve the theoretical foundations of technologies to protect young people from axiological and psychological attacks.

Keywords: information, propaganda, geopolitics, globalization, internet, idea, spirituality, ideology, national values, technology, intelligence, computer, attack, threat, manipulation, fatwa, extremism, mangroves, social network, democracy.

Аннотация: В данной статье подчеркивается, что в качестве деструктивных и бесчеловечных черт вредных идей аксиорот становится острым инструментом идеологического воздействия и имеет практическое значение повышение культуры медиаграмотности и использования интернета подрастающим поколением, развитие национального сегмента, дальнейшее совершенствование теоретических основ технологий защиты молодежи от аксиоротно-психологических атак.

Ключевые слова: информация, пропаганда, геополитика, глобализация, интернет, идея, духовность, идеология, национальные ценности, технологии, интеллект, компьютер, атака, угроза, манипуляция, фетва, экстремизм, мангровые заросли, социальная сеть, демократия.

KIRISH. Zamonaviy axborot texnologiyalari allaqachon hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo'lmagan odamlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo'liga o'tishdi. "O'rgimchak to'ri"ning takomillashuvi esa "ijtimoiy tarmoq" tushunchasining paydo bo'lishi va shakllanishiga zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o'z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonov va A.Rapoport o'tgan asr o'rtalarida muloqotning virtual ko'rinishi haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o'tishgan. Ijtimoiy tarmoq atamasini alohida tushuncha sifatida 1954 - yil Manchester maktabi namoyandalaridan biri J.Barns ilmiy iste'molga olib kirgan. Internet tarmog'ida insonlar o'rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilash bog'lashadi. Aslida ham shunday. Siz virtual olamda tez va qulay muloqotni kunning yoki tunning istalgan vaqtida o'rnatishingiz mumkin. Suhbatdoshingiz bilan yozishib, gaplashib, uni ko'rishingiz ham mumkin. Buning uchun kompyuter yoki telefon va internet bo'lsa kifoya.

Bugun dunyo aholisining 90% dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni ham hayratlanarli. Birgina "Facebook" ijtimoiy tarmog'idan 1,5 milliarddan ortiq kishi foydalanadi. Rossiyalik olim I.N.Panarinning ta'kidlashicha, har kuni "Facebook" ijtimoiy tarmog'iga 936 milliondan ortiq foydalanuvchi tashrif buyuradi. Umumiy foydalanuvchilar sonining 51 %i kamida bir oyda bir marta tarmoqqa kiradi. Bir foydalanuvchining "Facebook"da bir kun davomida bo'lish vaqti 21 daqiqa. Eng faol "Facebook" foydalanuvchilari Kanadada yashaydi. Osiyolik foydalanuvchilar soni ham oz emas, 253 million kishidan ortiqroq. Bu raqam bundan ham ko'p bo'lishi mumkin edi, ammo Xitoyda "Facebook"ka kirish ta'qiqlangan. "Google"ga tegishli video-xosting xizmati mashhurligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Har oy saytga 1,3 milliarddan ortiq kishi tashrif buyuradi.

Har oyda internet foydalanuvchilari saytdagi videolarni tomosha qilish uchun 6 milliard soatdan ko'proq vaqt sarflashadi. "Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek"[1]. Inson bu 3 soat mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nima notabiiylik bor deb o'ylash mumkin. Albatta, ushbu muloqot jarayonlarining ijobiy tomonlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko'zlagan insonlar o'tirmasligini o'nlab misollar bilan asoslash mumkin. Ayniqsa, yoshlarda bunday holat ko'proq yolg'iz qolish istagining kuchayishida namoyon bo'ladi. Tarmoqlarda mashhur bo'lgan "Ko'k kit" o'yini ham yolg'izlikni, jamoaviy munosabatlardan qochishni targ'ib qilib, oxir-oqibat yoshlarni o'z joniga qasd qilishga yetaklovchi jihatlarni oshkor qildi. Bu haqidagi dastlabki shov-shuvlar 2015 yildan boshlangan. "Internetda "Ko'k kit", "Tinch uy", "f58", "f57" kabi "o'lim guruhlar"[2] haqida turli fakt va ma'lumotlar bor: "Ko'k kit"ni 18 yoshga to'lmagan, mustaqil fikri, qiziqqan mashg'uloti yo'q o'smirlar qiziqtiradi. Boshida oson, qiziq topshiriqlar berib o'smirlarning ichiga kirib oladi. Keyinchalik tanasiga tig' bilan ko'k kitning suratini chizdirib, bitta kuyni 3 kun tinimsiz tinglab, topshiriqlarni bajargan o'smirlarni maqtab, tabriklaydi. Bu nihoyat 50 kunda so'nggi – 50 topshiriq (suiqasd)ni bajartirib, uni videoga olishni o'rgatuvchi o'lim o'yini, deyiladi.

MUHOKAMA. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, "...gegemonlik xohishidan voz kecha olmayotgan ayrim davlatlar hali-hanuz rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z ta'siriga olishga urinmoqda, imperiyachilik kayfiyatidagi arboblarning demokratik g'oyalar eksporti zavqiga berilib ketib, ba'zida davr sinovidan omon chiqqan milliy qadriyatlarga nopisandlik qilmoqda. Geosiyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilayotgan axborot xurujlari ijtimoiy tarmoqlarga ko'chmoqda"[3]. Darhaqiqat, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma'lumotlarda keltirilishicha, bugunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz

millionni tashkil etmoqda. “Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo‘ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko‘p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiodir”[4]. Chunki global o‘zgarishlar mafkuraviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko‘rinadi.

NATIJALAR. Yoshlar orasida mutaassiblikka yo‘g‘rilgan bunday platformalar tobora ommalashib borayotgani ularda turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi “fatvo”larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini ko‘rsatadi. Yoshlar ongiga nima singdirilsa, o‘sha muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarimizni o‘z tuzog‘iga ilintirishga harakat qiladilar. Ishonuvchanlik, kuch-g‘ayrati, qiziqqonlik yoshlarni destruktiv oqimlar qo‘liga tushib qolishiga sabab bo‘ladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlariga qo‘shilib ketish holatlari ko‘payib borayotganligi kuzatilmoqda. Biz yoshlarga bepisand, begonalarcha munosabatda bo‘lsak, ular ham bizdan begonalashadi. O‘qishdan, ishdan, jamiyatdan, davlatdan, boringki, hayotdan ko‘ngli sovib, xalqimiz iborasi bilan aytganda, qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga uradi”[5]. Shuning uchun ham, yoshlarimizni zararli axborot tahdidlaridan himoya qilish har bir aqli raso ziyolilarimizning muqaddas burchiga aylanishi hayotiy zaruratdir. Ijtimoiy tarmoqlar salbiy ta’sirining oldini olish uchun yoshlarning ma’naviy salohiyatini oshirish, axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko‘proq tuzib, yoshlarga mo‘ljallangan turli mavzular bo‘yicha maqsadli sotsiopedagogik loyiha va tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA. *Birinchidan*, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ularning ma’naviyatini yuksalirishimiz zarur. Buning uchun chuqur egallangan bilim, tajriba, shuningdek, ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma’naviy merosni

tadqiq qilish zarur bo‘ladi. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, dunyoni chuqur anglaydigan, zamonga hamnafas qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishishi zarur. Ana shunda yot va zararli, odob-axloq tushunchalarini rad etadigan g‘oyalar ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi; *ikkinchidan*, ijtimoiy tarmoqlarsiz zamonaviy dunyoni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo uning zararli oqibatlarini minimallashtirish va foydali tomonlarini targ‘ib qilish bugungi kun talabidir. Shu sababli, o‘shib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkurida zararli g‘oyalarning mavjud bo‘lmasligini ta’minlash, ularda ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish jamiyatimiz vakillari oldida turgan asosiy vazifalardandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rajabov H.I Global tarmoq manzarasi.\ Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 207.
2. Tashmetov T.X. (2023) Topical issues of ideological and ideological preservation of the minds and hearts of young people from information attacks on the internet // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 13, Feb. -pp. 226-230.
3. Муродова Ш.И.Ижтимоий тармоқ сўқмоқлари. –Тошкент: // Тафаккур, Ж. 2013.№ 4. –Б. 21.
4. Яхё Мухаммад Амин. Интернетдаги тахдидлардан ҳимоя. –Тошкент: Моварауннахр, 2016. –Б. 5.
5. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж. 1. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 507-510.
6. Tashmetov T.X. (2023) Trends in spiritual renewal of global and regional integration // Journal of Modern Educational Achievements. Vol.3. –pp. 162-167.
7. Tashmetov T.X. (2022) Innovative Technologies to Improve the Spirituality of the Youth during the Global Changes // JOURNAL OF APPLIED RESEARCH. Volume: 08 Issue: 07 July. -pp. 528-531.